

AKSIOLOGIK ONGNI SHAKILLANTIRISHDA MARKAZIY OSIYO MUTAFAKKIRLARINING MA'NAVIY ME'ROSI

Xolov Olimjon Chorshamiyevich

Termiz iqtisodiyot va servis universiteti "Pedagogika" kafedrasida katta o'qituvchisi,
pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD).

ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada aksiologik ongni shakillantirishda markaziy osiyo mutafakkirlarining ma'naviy me'rosidan foydalanishning o'ziga xos xususiyatlari haqida fikr yuritilgan. Shuningdek sharq mutafakkirlarining ta'limiy-tarbiyaviy qarashlaridan misollar keltirib uning mazmun mohiyati ochib berilgan.

Kalit so'zlar: Ta'lim, tarbiya, qadriyat, odob-axloq, milliy tarbiya, insonparvarlik, vatanparvarlik, oila, hurmat, mehnat, ilm.

ДУХОВНОЕ НАСЛЕДИЕ СРЕДНЕАЗИАТСКИХ МЫСЛИТЕЛЕЙ В ФОРМИРОВАНИИ АКСИОЛОГИЧЕСКОГО СОЗНАНИЯ

Холов Олимжон Чоршамиевич

Термезский университет экономики и сервиса, старший преподаватель кафедры
«Педагогика», доктор философии педагогических наук (PhD).

АННОТАЦИЯ

В данной статье рассматриваются особенности использования духовного наследия мыслителей Средней Азии в формировании ценностного сознания. Кроме того, приводятся примеры просветительских воззрений восточных мыслителей и раскрывается его сущность.

Ключевые слова: Образование, воспитание, ценность, нравы, народное воспитание, гуманизм, патриотизм, семья, уважение, труд, знание.

SPIRITUAL HERITAGE OF CENTRAL ASIAN THINKERS IN THE FORMATION OF AXIOLOGICAL CONSCIOUSNESS

Kholov Olimjon Chorshamiyevich

Termiz University of Economics and Service, senior teacher of the "Pedagogy"
department, doctor of philosophy in pedagogical sciences (PhD).

ABSTRACT

This article discusses the features of using the spiritual heritage of the thinkers of Central Asia in the formation of value consciousness. In addition, examples of enlightenment views of Eastern thinkers are given and its essence is revealed.

Key words: Education, upbringing, value, morals, public education, humanism, patriotism, family, respect, work, knowledge.

KIRISH

Tarbiya xulqni boshqaruvchi axloqiy munosabatlarning murakkab yig'indisidir. Tarbiya shaxsni maqsadga muvofiq takomillashtirish uchun uyushtirilgan pedagogik jarayon bo'lib, tarbiyalanuvchilarning shaxsiga muntazam va tizimli ta'sir etish imkoniyatini beradi. Tarbiya - o'sib kelayotgan avlodda hosil qilingan bilimlar asosida aqliy-axloqiy dunyoqarashni, insoniy e'tiqod, burch va masuliyatni, har bir jamiyatga xos bo'lgan axloqiy fazilatlarni ifodalab, inson dunyoga kelganidan umrining oxirigacha davom etadigan jarayondir.

Dunyo tarixga nazar soladigan bo'lsak ta'lim-tarbiya borasida chuqur iz qoldirgan ko'plab olimlarning nomlarini keltirishimiz mumkin. Ularning ta'limiy-tarbiyaviy qarashlari o'z xalqi va dunyo xalqlari uchun aksiologik jihatdan ma'naviy ozuqadir. Shu o'rinda aytiish kerakki, bu sohada markaziy Osiyo mutafakkirlarining ma'naviy meroslari alohida ahamiyat kasb etadi. Ushbu fikrlardan kelib chiqqan holda, sharq allomalarining ma'naviy merosida qadrlangan tarbiyaviy sifatlarga qisqacha to'xtalib o'tamiz.

ASOSIY QISM

O'rta Osiyo mutafakkirlarining ma'naviy merosida barkamol shaxsni tarbiyalash o'ziga xos o'rin tutib, yoshlar qalbida insoniy fazilatlarni yanada shakllantirishga yordam beradi. Shu bois biz uchun qadrlil bo'lgan allomalarimizdan Imom Al Buxoriy, Muhammad Iso At Termiziy, Axmad Yassaviy, Bahovuddin Naqshband, Al Xorazmiy, Abu Ali ibn Sino, Abu Nasr Forobiy, Abu Rayxon Beruniy, Alisher Navoiy va boshqalarning ma'naviy-ma'rifiy me'rosalaridan keng foydalanish yoshlar tarbiyasida muhim omil bo'lib hisoblanadi.

Mustaqillik yillaridan boshlab yurtimizda milliy an'ana va urf-odatlar qayta tiklash hamda rivojlantirish, muqaddas qadamjolarini obodonlashtirish, yosh avlodni boy tariximizga hurmat, vatanparvarlik va odamiylik fazilatlari ruhida voyaga yetkazishga alohida e'tibor qaratib kelinmoqda. Bu borada hurmatli Prezidentimiz Sh.M.Mirziyoev "O'z milliy tarixi va madaniyatiga, dunyoda eng katta boylik bo'lgan intellektual va ma'naviy salohiyatga chuqur hurmat bilan yondashish, uni asrab avaylash va boyitish, shu asosda yosh avlodni milliy va umuminsoniy qadriyatlar ruhida tarbiyalash jahondagi har bir davlat va jamiyatning moddiy va ma'naviy

taraqqiyotida, hyech shubhasiz, hal qiluvchi o‘rin egallaydi” [1]. deb ta’kidlagan edilar. Ushbu fikrlardan ko‘rinadiki mutafakkirlarimizning ma’naviy merosidan keng foydalanish yoshlar tarbiyasida nechog‘li yuqori ekanidan dalolat beradi.

O‘rta osiyo mutafakkirlarining qadriyatlar to‘g‘risidagi qarashlarini o‘rganar ekanmiz, mutafakkirlar tamonidan millatimizga xos bo‘lgan axloqiy, tarbiyaviy fazilatlar haqida hur fikrlar bayon etilganini anglab etdik. Shu o‘rinda aytish kerakki mutafakkirlarimiz qarashlarida avvalo milliy tarbiya asosida bolani tarbiyalashga alohida e’tibor qaratgan. Mutafakkirlarimiz tamonidan ilgari surilgan tarbiyada milliy qadriyatlar, umuminsoniy qadriyatlar, diniy qadriyatlar, vatanparvarlik, do‘stlik, odob-axloq, ahillik, mehnatsevarlik, kasb-hunarga muhabbat, yaxshilik va yomonlikning oqibati, halollik, to‘g‘rilik, olijanoblik, adolatlilik, insof, botirlik, saxiylik, baxillik, kamtarlik, sabr-qanoat, muhabbat, or-nomus, samimiylik, andisha, farosat, isrof, me’yor, ma’suliyat, kattaga hurmat, namuna, urf-odat va an’analarga sodiqlik takror va takror qayd etilib, ularning bari milliy qadriyatlar sifatida tarannum etiladi. Bu esa yosh avlod ta’lim-tarbiyasida aksiologik ongni shakillantirishda muhim o‘rin tutadi. Shu o‘rinda markaziy osiyo mutafakkirlarining ma’naviy me’roslari asosida misollar keltirib o‘tamiz.

Abu Nasr Forobiy tarbiya borasidagi qarashlarida milliy va umuminsoniy qadriyatlar yaqqol namayon bo‘lgan. Uning “Inson o‘z baxtiga erishishda go‘zallikni ko‘rishi va his qilishining o‘zi yetarli emas, buning uchun go‘zallikni yarata olishi muhimdir”, “Har inson kasb-korini mukammal bilmog‘i, yaxshi tarbiya olmog‘i, yaxshi xulq-atvorga, fazilatlarga ega bo‘lmog‘i kerak”, - deganlar [6, 72-b]. Shuningdek Forobiy 12 ta xislat va fazilatini sanab o‘tib ularni yoshlar tarbiyasida mujassam qilish va ularda bu xususiyat qadriyatga aylanishi zarurligini ta’kidlagan. Ya’ni: sog‘lomlik, farosatlilik, kuchli xotira, zukkolik, notiqlik, ma’rifatga intilish, nafsni jilovlash, haqiqatni sevish, oriyatlilik, mol-dunyo ketidan quvmaslik, adolatparvarlik, qat’iyatlilik va jasurlik [2, 29-b]. Shu o‘rinda aytish kerakki, Forobiy ta’kidlagan bu fazilatlar bugungi kunda yoshlar tarbiyasida aksiologik jihatdan muhim ahamiyat kasb etadi.

Abu Rayhon Beruniy (973-1048) bobomizning qoldirgan merosi dunyo xalqlari taraqqiyotida o‘ziga xos o‘rin tutadi. Beruniy o‘zining “Hindiston” asarida oila va nikoh munosabatlarini yoritgan. Mutafakkir oila va nikoh munosabatlarining nozik tomonlarini axloqiy va huquqiy nuqtai nazardan tadqiq qilar ekan, oilaning mustahkam va tinch-totuv bo‘lishi, er-xotinning ahilligi, shirinso‘zligi, bir-biriga bo‘lgan mehr-oqibatiga bog‘liq, degan fikrni ilgari suradi. Beruniy turmush qurish ostonasida turgan qizlarga shunday deydi: “Ey, qizim, sen o‘rgangan uyingdan ketib, notanish xonadonga tushmoqdasan. Sen bo‘lajak kuyovingning hamma xislatlarini bilmaysan. Sen yer bo‘l, u osmon bo‘ladi. Sen u bilan shunday yo‘l tutki, uning oldida yer kabi kamtar bo‘lsang,

u osmon kabi oliyjanob bo‘ladi. Osmon shifoli yomg‘iri bilan yerni ko‘kartirgani kabi u ham o‘z mehr-shafqati bilan seni hushnud etadi... Ering sendan shirin va yumshoq so‘zlar eshitsin. Yaramaydigan yoki eski libosda yoki sochlaring tartibga solinmagan holda uning oldida o‘tirma. Qizim, kuyovingdan kuchi yetmagan va olib berishga qudrati bo‘lmagan narsalarni talab qilma. Bunday qilsang, oradagi totuvlik yo‘qoladi, turli xil janjallar paydo bo‘ladi. Qizim, rashk qilishdan saqlangin, chunki u ajralib ketishning kalitidir. Eringga hadeb gina qilishni man qilaman. Chunki bu ezmalik nafratni uyg‘otadi. Yaxshisi, u bilan xushmuomala, shirinso‘zli bo‘lgin, bu ishing har qanday sehr-jodudan yaxshidir. Suvdan tez-tez foydalangin. O‘zingga xushbo‘y narsalar bilan oro ber. Pokizalik hamisha yo‘ldoshing bo‘lsin” [7, 56-b.]. Beruniyning qarashlaridagi tarbiya, oila, hamkorlik, o‘zaro munosabatlarda xushmuomalalik bugungi kunda aynan milliy qadriyatlarimizga xosdir. Beruniyning ushbu fikrlaridan foydalanish yoshlarni oila qadri va uni asrab avaylashda muhim ahamiyat kasb etadi.

Abu Ali ibn Sino (980-1037) inson bezagi uning axloqiy tarbiyasi bilan ekanligini ta’kidlaydi. U axloqqa bag‘ishlangan risolasida “Har bir insonda qadriyatga aylanishi lozim bo‘lgan tarbiya iffat, qanoat, saxiylik, shijoat, sabr-toqat, muloyimlik, do‘stlik, sirni saqlay bilish, ilm-ma’rifatli bo‘lish, ochiqlik, farosatlilik, kamtarlik, adolatlilik kabi axloqiy fazilatlar” deydi [8, 11-b.]. Ibn Sinoning axloqiy tarbiya borasidagi keltirgan har bir sifatlar milliy tarbiyamizda yuksak qadrlanadi. Ushbu sifatlar asosida yoshlarni milliy tarbiya ruhida aksiologik ongni shakllantirishda mutafakkirimizning qarashlaridan unumli foydalanish o‘rinlidir.

Abu Abdulla Muhammad ibn Ismoil al-Buxoriy (810-872) o‘zining asarlarida ota-onaga hurmat, qarindoshlarga nisbatan oqibatli bo‘lish, insonlarga ozor bermaslik, qo‘shni haqqini ado etish, fitnadan, g‘iybat va kibrdan uzoq bo‘lish, adolat bilan ish tutish kabi insoniy fazilatlar haqida keng ma’lumotlar berib ularga amal qilgan kishini hech qachon xor bo‘lmasligini ta’kidlaydi. Ayniqsa uning ta’limiy qadriyat haqidagi qarashlari har bir inson uchun dasturul amal bo‘lishi lozim. Ya’ni rivoyatlarga ko‘ra, xalifaning Buxorodagi noibi Xolid ibn Ahmad ibn Xolid az-Zuhaliy uni saroyga kelib hadis ilmidan saboq berishga taklif etadi. Ammo Imom Ismoil al-Buxoriy bu taklifga: “Men ilmni xorlab sultonu amirlar eshigiga olib bormayman. Agar amirga ilm kerak bo‘lsa, bolalarni (ikkinchi rivoyatda saroydagilarni) uyimga yoki masjidimga yuborsin” [5, 5-b], - deb javob beradi. Bundan ko‘rinadiki ilim bormaydi, ilm olish uchun intilish va uni izlash zarurligini anglashimiz kerak.

Buyuk shoir, mutafakkir, olim va davlat arbobi, o‘zbek adabiyotining asoschisi **Alisher Navoiy** (1441-1501) o‘z asarlarida o‘zbeklarga xos bo‘lgan ular uchun qadriyatga alohida e’tibor qaratgan. U milliy urf-odatlar, ayollar, ota-ona va farzand munosabatlariga ko‘plab to‘rtliklarida ta’rif bergan. Navoiy ijodida ayollar, ayniqsa, onalarga bo‘lgan chuqur hurmat va ehtirom doimo sezilib turadi. Jumladan, “Iffatli,

shirinso‘z, xushmuomala, aqlli va go‘zal xulq ayollar hamisha qut-baraka, shirin hayot manbaidirlar. Sen o‘zingga yor, mahbubu tilasang, uning to‘g‘ri so‘zligi, haqgo‘yiligi, yurish-turishiga boq” deydi [3, 41-b]. Albatta, shoir ayollarni bebaho so‘zlar bilan ko‘klarga ko‘tarar ekan, erkaklarni ayol tanlashda nimalarga ahamiyat berish kerakligini ta’kidlab o‘tadi. Alisher Navoiyning “Nasoyim-ul muhabbat” asarida komil insonga xos xususiyatlar va uning sharqona fazilatlarini sanab o‘tiladi. Bular qatoriga ulug‘ mutafakkir: tavba, halol luqma bilan qanoatlanish, o‘z kasbidan topib kun o‘tkazish, shariatga rioya etish, barchadan o‘zini kam deb bilish, hatto farzandlari, xizmatkorlariga qo‘pollik qilmaslik, chuchuk tilli bo‘lish, yaxshi, muloyim bo‘lish, rahmdil bo‘lish, saxiy bo‘lish, mard bo‘lish, halimlik, xushxulq bo‘lish, rizo-rozilik bilan kun o‘tkazish, sabrli bo‘lish, sadoqatli, vafoli bo‘lish, riyozat chekishdan qo‘rqmaslik kabilarni kiritadi.

Abdurauf Fitrat (1886-1938) “Rahbari najot” asarida yosh avlod tarbiyasi to‘g‘risida shunday yozgan: “Dunyo kurashning umumiy maydoniga o‘xshaydi va bu maydonning buzruk pahlavonlari insonlardir. Bu kurashda g‘olib chiqish uchun uch xil qurolga ega bo‘lish kerak: birinchisi - “Salomatlik”, ikkinchisi -“Sog‘lom fikr”, uchinchisi -“ Axloqi sano” (oliy axloqiylik). Bolalarni barkamol qilib voyaga yetkazish uchun uning tarbiyasiga faqat oilagina javobgar bo‘lmasdan, butun millat ahli javobgardirlar” deganlar [4, 36-b]. Farzand, uning tarbiyasi qadimdan xalqimizning ezgu orzusi bo‘lib kelgan. Fitratning farzand tarbiyasi haqidagi bu fikrlari bugun ham o‘z kuchini yo‘qotgani yo‘q. Shunday ekan, Sharq mutafakkirlarining tarbiya haqidagi bebaho merosi – insonning insoniyligini ta’minlaydigan abadiy qadriyat ekanini va undan farzand tarbiyasida to‘laqonli foydalanish zarurligini unutmashimiz darkor.

XULOSA

Yuqorida keltirilgan mutafakkirlarimizning qarshlari barkamol avlodni tarbiyalashda muhim ahamiyat kasb etadi. Ushbu sifat va fazilatlarni yoshlarimiz qolaversa har bir inson o‘rganishi tarbiyaviy qadriyatlarni yanada takomillashtiradi. Mutafakkirlarimiz tamonidan el-yurt tinchligi va obodligi, xalqning birdamligi, insoniylik, tinchliksevarlik, mehnatni qadrlash, vatanparvarlik, ilm olishga intilish doimo qadrlangan bu esa yosh avlod ta’lim-tarbiyasida muhim o‘rin tutadi. Shunday ekan aksiologik ongning shakillantirishda markaziy osiyo mutafakkirlarining ma’naviy me’rosidan ta’lim-tarbiya jarayonida o‘rinli foydalanish yosh avlod tarbiyasida muhim ahamiyat kasb etadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI: (REFERENCES)

1. Mirziyoyev Sh.M. “Xalq so‘zi” gazetasi. Toshkent. 2016. 8-dekabr.
2. Abu Nasr Farobiy. “Fozil odamlar shahri” – Toshkent. Abdulla Qodiriy nomidagi xalq merosi nashriyoti, 1993. – 222 b.
3. Alisher Navoiy. “Ibratli hikoyatlar va xislatli hikmatlar”. Toshkent. “Sanostandart” 2016. 82 b.
4. A.Fitrat. “Oila” Toshkent. “Ma’naviyat” 1998. 60 b.
5. Imom Ismoil al-Buxoriy. “Al-adab al-mufrad”. 10-bob, 21-hadis. www.ziyouz.com kutubxonasi. – 5 b.
6. Ibrohimov A. “Bizkim, o‘zbeklar”. “Sharq”, Toshkent. 2011. 142 b.
7. I.Suvonqulov. “Ma’naviyat ildizlari”. Qo‘llanma. Samarqand. 2000. 72 bet.
8. Shoumarov G‘., Akramova F., Umarov B. “Oilada ma’naviy-axloqiy tarbiya”. Toshken.: 2015. 20 b.